

SUV XO‘JALIGI MUAMMOLARI

Madina Uralova G‘anisherovna

*"TIQXMMI" Milliy tadqiqotlar universiteti Gidromelioratsiya
fakulteti 'suv xo‘jaligi va melioratsiya'
yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Buguni kunda mamlakatimiz rahbari suv xo‘jaligiga katta e‘tibor qaratmoqda. Suv xo‘jaligi ertangi kunimiz poydevori desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Ushbu maqolada suv xo‘jaligining muammo va bu muammolarga nisbatan qilinayotgan sayi harakat va yechimlarini keltirib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: suv xo‘jaligi, xalq xo‘jaligi tarmog‘i, zax, suv toshqini, suv yetishmovchiligi, vegetatsiya davri, uslubiy rejalar, suv tejovchi texnologiyalar.

Kirish. Suv xo‘jaligi - xalq xo‘jaligi tarmog‘i; suv resurslarini o‘rganish, hisobga olish, undan kompleks foydalanishni rejalashtirish, sug‘orish sistemalarini ekspluatatsiya qilish, yer osti va yer usti suvlarini ifloslanishdan, tugab qolishdan saqlash, shuningdek, uni iste‘molchilarga yetkazib berish bilan shug‘ullanadi. Suv xo‘jaligi vazifasiga yerlarni sug‘orish, zaxini qochirish, yaylovlarni suv bilan ta‘minlash; tuproq qatlamining yuvilib ketishi va jarliklar hosil bo‘lishining oldini olish; yerlarni, binolar, inshoot va boshqa ob‘yektlarni suv toshqini va suv bosishdan muhofaza qilish; sanoat, qishloq xo‘jaligi., aholini suv bilan ta‘minlash (qarang Suv ta‘minoti), suv energiyasidan foydalanish; balikchilik va baliq ovlash, kema qatnashi va yog‘och oqizish ishlari uchun zarur bo‘lgan inshoot va moslamalarni qurish; suv resurslarining behuda sarflanishi, kamayib ketishi va ifloslanishidan muhofaza qilish va boshqa ishlar kiradi. Suv resurelariaan foydalanish tartibiga ko‘ra, xalq xo‘jaligi tarmoqlari suv iste‘molchi va suvdan foydalanuvchi tarmoqlariga bo‘linadi.

Suv xo‘jaligiga umumiy rahbarlikni Respublika Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi olib boradi. Vazirlikning viloyatlar boshqarmalari hamda irrigatsiya tizimlari gidrouzellar, kanallar, nasos st-yalari ishlarini boshqaradi. Gidrometriya xizmati joylarda suv taqsimotini hisobga oladi va nazorat qiladi.

Asosiy qismi. Oxirgi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekistonda suv yetishmovchiligi keskin kuchayib bormoqda. Bu muammo jumladan, tomorqachi va fermerlar o‘rtasida turli nizoli vaziyatlarni ham yuzaga keltirmoqdaki, undan ko‘p hollarda tomorqachilar jabr ko‘ryapti.

O‘tgan yili prezidentimiz shu masalaga alohida urg‘u berib o‘tdi. Xalqimizga ko‘maklashish maqsadida tomorqa xo‘jaliklari ham bizning qishloq xo‘jaligida ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerak deb bizga vazifa berdi. Avvallari suvdan foydalanuvchilar uyushmasi bo‘lardi, suv va suvdan foydalanish bo‘yicha qonunni takomillashtirish jarayonida Suv iste‘molchilari uyushmasiga aylandi va huquqiy maqom berildi. Va qator huquq va majburiyatlar belgilab berildi. Lekin ish jarayonida bu o‘zini oqlamadi.



Shuning uchun o'tgan 2022 yilda prezidentimiz 145-sonli qarori bilan quyi bo'g'inlarda suvni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha maxsus qaror chiqardi.

Fermer, klasterchilar va tomorqachilar o'rtasidagi muammo yechimi bo'yicha takomillashtirish ishlari hali oxiriga yetgani yo'q. Lekin suv xo'jaligi tizimidagi maxsus xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bor. Ular budjetdan oylik olmaydi, qilgan xizmatiga qarab fermer va aholidan pul olishi mumkin kelishilgan holda. Mana shu maxsus xizmat boshlig'i tuman irrigatsiya bo'limi boshlig'ining o'rinbosari ham hisoblanadi. Ularga ish sharoitlari yaratilgan. Uslubiy rejalar, ish yuritish tomonidan irrigatsiya bo'limi yordam beradi. Hozir fermer xo'jaliklari soni ko'paygan, tarmoqlar oshgan, shularning taqsimotini qilish katta bir masala. Lekin shunday bo'lsa ham, prezidentimiz har bir tomorqa suv ichishi kerak, degan topshiriq bergan. Ular ham katta miqdorda mahsulot chiqaryapti bozorga. Maxsus xizmatni takomillashtirib borish kerak bo'ladi. O'tgan yili bu bo'yicha 5,5 mingga yaqin xodim ishga olindi, shulardan 3 mingtasi mutaxassis xodimlar, qolgani talabga javob bermaydi. Vegetatsiya davri o'tgach, shartnomani bekor qildi, 600 tachasi qoldi.

Qayd etish joiz, hozirgi paytda suvga bo'lgan talab va ehtiyoj har qachongidan tobora ortib bormoqda. Natijada butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilyapti.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2050 yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Boshqa tomondan esa, aholining o'sishi hisobiga, O'zbekistonda 2030 yilga borib, suvga bo'lgan talab 7 mlrd. kub metrga yetishi, 2050 yilga borib esa, bu ko'rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin.

Asosiy masala — suvdan oqilona va samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan. Binobarin, Prezidentimizning saylovoldi dasturida ham suv resurslarini tejashga alohida e'tibor berilib, 2030 yilga qadar respublikamizdagi sug'orma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini to'liq suv tejaydigan texnologiyalarga o'tkazish, sohaga bozor mexanizmlarini keng tatbiq etish, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etgan fermer va dehqonlar uchun rag'batlantirish mexanizmlarini yanada ko'paytirish choralari ko'rilishi belgilandi.

Bundan tashqari, bugungi kunda respublikamizda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarining uskunolari va butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 50 dan ortiqni tashkil etib, mazkur texnologiyalarni mahalliyashtirish 80 foizga yetkazildi. Aytish kerak, ushbu texnologiyalar qismlarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hisobiga mahsulot tannarxi arzonlashdi. Shu bilan birga, uskunalarini qo'shni respublikalarga eksport qilish imkoniyati yaratildi.

XULOSA:

Albatta, bu borada amalga oshirilgan vazifalar kelgusida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilgan maydonlar ko'lamini sezilarli darajada oshishiga imkon beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergasheva, Marjona O'Ral Qizi MARKAZIY OSIYO GEOSIYOSATIDA SUV MUAMMOLARI // ORIENSS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/markaziy-osiyo-geosiyosatida-suv-muammolari>
2. Mahliyo Bahodir Qizi Xushmatova MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARIDA SUV BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA UNING O'ZARO MUNOSABATLARIDAGI AHAMIYATI // Scientific progress. 2021. №3.
3. Xazratov, Alisher Normurodovich MAMLAKATIMIZ SUV XO'JALIGI TARIXI VA BUGUNI // ORIENSS. 2023. №5.
4. <https://uzsuv.uz>
5. <https://Review.uz>

